

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ROMANTIZM OQIMI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sharof Rashodov nomidagi SamDU Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti

Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrası assitenti

Yakubova Safiya Hamdamovna

E-mail: safiyayakubova1231@gmail.com

Tel: +998889300021

Boboqulova Iroda Sirojiddin qizi

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'TVA yo'nalishi 1- bosqich talabasi.

irodaboboqulova392@gmail.com

Tel: +998881112019

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida romantizm oqimining shakllanish jarayoni, uning estetik asoslari, milliy talqini va yetakchi vakillar ijodidagi badiiy xususiyatlari tahlil etiladi. Romantizmning o‘zbek adabiy tafakkuridagi o‘rni, jadidchilik harakati bilan bog‘liqligi, shuningdek, Cho‘lpon, Fitrat, Elbek kabi ijodkorlar asarlarida namoyon bo‘lgan ruhiy kechinmalar, idealga intilish, shaxs va jamiyat ziddiyatlari ilmiy asosda sharhlanadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek romantizmining milliy uyg‘onish, ozodlik va ma‘naviy tiklanish g‘oyalari bilan uzviy bog‘langanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar romantizm, o‘zbek adabiyoti, jadidchilik, estetik tafakkur, Cho‘lpon, Fitrat, milliy uyg‘onish, lirik romantizm

Аннотация В статье анализируется процесс формирования течения романтизма в узбекском литературоведении, его эстетические основы, национальная интерпретация и художественные особенности, проявляющиеся в творчестве ведущих представителей этого направления. Раскрывается взаимосвязь романтизма с джадидским движением, а также особенности отражения духовных переживаний, идеалов, внутренних конфликтов личности и общества в произведениях Чулпона, Фитрата, Элбека и других авторов. Результаты исследования показывают, что узбекский романтизм тесно связан с идеями национального возрождения, свободы и духовного обновления.

Ключевые слова романтизм, узбекская литература, джадидизм, эстетическое мышление, Чулпон, Фитрат, национальное возрождение, лирический романтизм

Abstract This article examines the formation of the Romanticism movement in Uzbek literary studies, its aesthetic foundations, national interpretation, and artistic

features reflected in the works of its leading representatives. The study explores the relationship between Romanticism and the Jadid movement, focusing on the depiction of spiritual experiences, idealistic aspirations, and the contradictions between the individual and society in the writings of Cho'lpon, Fitrat, Elbek, and others. The findings demonstrate that Uzbek Romanticism is closely connected with the ideas of national revival, freedom, and spiritual renewal.

Keywords romanticism, Uzbek literature, Jadid movement, aesthetic thought, Cho'lpon, Fitrat, national revival, lyrical romanticism

O'zbek adabiyotining XX asr boshlaridagi taraqqiyot jarayonlari milliy uyg'onish, madaniy yangilanish, ijtimoiy-siyosiy silkinishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mustamlaka siyosatining kuchayishi, jamiyatning ijtimoiy adolatsizliklar girdobiga tushishi, milliy o'zlikning inqirozga yuz tutishi o'zbek ziyolilarining adabiyot orqali millatga murojaat qilishiga sabab bo'ldi. Ana shunday murakkab jarayonda romantizm oqimi milliy adabiy tafakkurda yangi badiiy-estetik bosqichni yuzaga chiqardi. Romantizm — insonning ichki dunyosi, orzu va ideallari, ruhiy ziddiyatlari, jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi norozilik kayfiyatini estetik vositalar orqali aks ettiradigan ijodiy oqim sifatida namoyon bo'ldi.

Romantizm- XVIII -XIX asrning birinchi yarmida vujudga kela boshlagan san'at oqimi hisoblanadi. Bu oqim Germaniyada shakllangan bo'lib, fransuzcha "Romantisme" Atamasi sifatida MDH mamlakatlariga kirib kelgan. Romantizm tasviriy san'atda avvalo, rangtasvir va grafikada va adabiyot, musiqa va san'at teatr sohalarida ham o'z aksini topgan. Romantizm yo'nalishida faoliyat olib borgan rassomlar rasm ustida ishlashda his- tuygu va kechinmalarni juda muhim deb sanagan. Ijod jarayoni ularning muqaddas siri hisoblashgan. Romantik rassomlar uchun portret kerakli janrlardan biriga aylangan. Rassomlar insonlarning o'ziga xosligini, ichki dunyosini yoritib berishga intilganlar. Adabiyotda shoirlar va yozuvchilar rassomlar qatori, insonning ichki olamini, uning his tuyg'ularini o'rganishgan. Romantizm yozuvchilarni qadimiylilik, mo'jizaviylilik va xalq tafakkuri qiziqtirgan. Masalan: Nikolay Gogolning ukrain qissalarida romantizmga xos tomonlar yaqqol ko'zga tashlangan.[2] XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada romantizm o'rnini realizm egallaydi. Romantizm fransuz inqilobi natijasida ham vujudga kelgan edi. U asosan aql va mantiqqa xos ma'rifatchilik g'oyalariga qarshi chiqdi. Romantiklar hayotini faqat tafakkur bilan emas balki his tuyg'u va hayolot orqali anglashga intiladilar. Romantik qahramon obrazi ham shunga aniq misol bo'la oladi. Romantik qahramonlar - bu yuksak hissiyotga ega qonun qoidalarga itoat qilmaydigan erkin, mag'rur shaxs hisoblanadi. Shu bilan birga romantizm asarlarda ham voqelikdan ko'ra orzu umidlar, sirlilik, nafislik va ruhiy kechinmalar ustuvor o'rin egallaydi. Romantizm oqimini turli davrlarda turli xalqlarda mamlakatlarda uchratishimiz mumkin. Nemis romantizmi- XVIII asr oxiri XIX asr

boshlarida falsafa, estetika va adabiyotda o'z ta'sirini ko'rsatdi. Fridrix Shlegel bu oqimning nazariy poydevori bo'lgan. Yana bir nemis romantizmining yorqin namunalaridan biri Ernst Teodor Amadey Gofman (1776-1822) dir. Uning fantastik novellalari inson ichki olamining ichki jihati- yaxshilik va yomonlik, aql va hissiyot o'rtasidagi kurashni ifodalaydi. Gofman inson xarakterining ichki ziddiyatlarni tobora badiiy shaklda namoyon qilgan yozuvchidir [3]. Shunga ko'ra fransuz adabiyotida ham romantizm oqimi bir muncha jadallashgan. Fransiyada romantizm fransuz inqilobi natijasida shakllanadi. Bu borada V. Gyugo alohida o'rin egallaydi. U adabiyotda insonparvarlik, xalq hayoti va mustaqillik g'oyalarini ilgari surgan. Gyugo " Dengiz zahmatkashlari ", " To'qson uchinchi yil ", singari romanlar, bundan tashqari " Ernani " Va "Ryui Blaz" Pyesalari bilan mashhurdir. Uning bu kabi asarlari orqali fransuz adabiyotida inson qadr qimmat, adolat va muhabbat g'oyalari katta badiiy mahorat bilan ifodalanadi. Vanixoyat o'zbek adabiyotida ham romantizm o'z o'rniga egadir. O'zbek adabiyotida romantizm oqimi 19 asr oxiri 20 asr boshlarida shakllana boshlagan[4]. O'zbek romantizmi uchta muhim bosqichga ega - 1) klassik ildizlar, bunda romantik ruhning poetik manbalari ideal obraz, ruhiy yuksalish kabilar kiradi. 2) jadid romantizmi - bu o'z o'zidan ma'lumki jadidlarimiz haqida, bularga misol qilib - Cho'lpon, Furqat, A. Avloniy kabilarni aytib o'tishimiz mumkin. O'zbek adabiyotshunosligida romantizm bir yoqlama talqin qilinmaydi: ba'zan uni jadidlar ijodining tabiiy davomi sifatida ko'rish mumkin bo'lsa, ba'zan u milliy o'zlik, ma'naviy mustaqillik va ruhiy izlanishlar bilan bog'lanadi. Bunda Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Botu, Qodiriy kabi ijodkorlarning badiiy dunyoqarashi romantik tafakkurning yetuk namunalarini tashkil etadi. Romantizmning o'zbek adabiyotidagi namoyon bo'lishi G'arb romantizmidan farq qiluvchi milliy, tarixiy va ma'naviy omillarga tayanadi. Shuning uchun bu oqimni o'rganish nafaqat adabiy jarayon tarixini, balki milliy uyg'onishning badiiy asoslarini aniqlashda ham muhimdir. Mazkur maqola o'zbek romantizmining ilmiy adabiyotlarda tadqiqi, uning shakllanish omillari, badiiy xususiyatlari hamda jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini izohlashga bag'ishlanadi. Tahlilda romantizmning o'zbek adabiyotiga xos milliy-estetik talqini, jadidchilik bilan uzviy bog'liqligi, shaxs va jamiyat munosabatini yoritishdagi funksiyasi ilmiy asosda ochib beriladi.

O'zbek adabiyotshunosligida romantizm masalasi XX asrning turli davrlarida har xil uslubda o'rganilgan. Sovet davri tadqiqotlarida romantizm asosan "progressiv jadid adabiyoti" bilan bog'langan holda talqin qilinib, undagi milliy ozodlik g'oyalari ko'pincha siyosiy sabablar bilan cheklangan. Mustaqillikdan keyin bu yo'nalishning badiiy-falsafiy mohiyati qayta baholandi. Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili bir necha ilmiy yo'nalishlarni ajratish imkonini beradi. Birinchi guruh tadqiqotlar romantizmni adabiy jarayonning umumiy qonuniyatlari bilan bog'laydi. Masalan, N. Karimov romantizmni o'zbek adabiyotidagi yangilanish bosqichi sifatida izohlaydi, unda badiiy

tafakkurning ichki o'zgarishi asosiy o'ringa ega ekanini ta'kidlaydi. [1] O. Sharafiddinov romantizmni insonning ruhiy olami, ma'naviy izlanishi va orzularini aks ettiruvchi badiiy oqim deb hisoblaydi. Ikkinchi guruh tadqiqotlar romantizmni jadid adabiyoti bilan bog'laydi. Jadid adabiyotining ma'rifiy, milliy va ozodlik g'oyalari romantik-estetik qarashlar bilan uyg'unlashgan. B. Qosimov, A. Qayumov kabi adabiyotshunoslar romantizmni jadidchilik harakatining badiiy ifodasi sifatida ko'rsatadi. Cho'lpon, Fitrat, Botu kabi ijodkorlarda romantizmning milliy uyg'unish mafkurasi bilan bog'lanishi alohida ta'kidlanadi. Uchinchi yo'nalish tadqiqotlari romantizmning poetik xususiyatlarini tahlil qiladi. Masalan, Cho'lpon she'riyatidagi iztirob, yolg'izlik, sevgi va izlanish motivlari lirik romantizmga xos belgilar sifatida izohlanadi. Fitrat dramalarida ideal jamiyatni yaratish orzusida bo'lgan qahramonlarning ruhiy ziddiyatlari o'zbek romantizmining dramatik ko'rinishlarini namoyon etadi. Elbekning lirikasi esa mehr, iztirob, ruhiyatdagi nozik kechinmalarni poetik musiqiylik bilan ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Mustaqillik yillarida romantizmga oid yangi tadqiqotlar paydo bo'ldi. U. Saidov romantizmni milliy o'zlikni anglash jarayoni bilan bog'lab, undagi ruhiy chuqurlik, qahramonning ichki kechinmalarini asosiy estetik tamoyil sifatida izohlaydi[4]. Q. Yo'ldoshev esa romantik-estetik tafakkurni o'zbek tanqidchiligi tarixida o'rganilishini tahlil qilib, mazkur oqimning badiiy jarayondagi o'rnini alohida baholaydi. Adabiyotlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, o'zbek romantizmi yagona tarzda shakllanmagan, balki milliy, falsafiy, ma'naviy va ijtimoiy omillar uyg'unligida rivoj topgan murakkab badiiy hodisadir. O'zbek adabiyotidagi romantizm oqimining shakllanishi bir necha asosiy omillar bilan izohlanadi. Eng avvalo, XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, millatning mustamlakachilikdan qutulishga bo'lgan intilishi, ma'rifat va taraqqiyotga bo'lgan ehtiyoj romantik tafakkurning rivojlanishiga turtki berdi. Jadidchilik harakati romantizmning mustahkam asosiga aylandi, chunki jadid adabiyotida shaxs erkinligi, milliy uyg'unish, jamiyatni isloh qilish g'oyalari romantik ruhda talqin qilindi. O'zbek romantizmining o'ziga xos jihatlari avvalo shaxsning ichki dunyosini chuqur tasvirlashda ko'rinadi. Yana bir mashhur romantizm namoyondalarimizdan biri Jorj Gordon Bayron-1788 yil 22- yanvarda Londonda dunyoga kelgan. Uning otasi Angliya aristokratiyasining kambag'allashib qolgan toifasiga, onasi esa shotlandiyalik boy dvoryan oilasiga mansub edi. Jorj Bayron tug'ilgan paytda ota onalari ajralib ketadilar. Otasi 1791 - yilda Fransiya ketib u yerda olamdand o'tadi. Bayronning yoshligi Shotlandiyada onasi yonida o'tadi. Jorj tug'ma oqsoq bo'lgan. Ammo bu nuqsoni uning mohir suzuvchi, boksyor va chavandoz bo'lib yetishishiga halal bermadi. Bayron 10 yoshida lordlik unvoni unga meros bo'lib qoldi. Bayron Angliya hayotining shiddatli davrida yashab ijod qildi. U maktabda o'qib yurgan chog'laridayoq notiqlik san'ati bilan tanishadi. U o'z asarlari orqali romantizmga hissasini qo'shdi. Uning 1807- yilda birinchi she'riy to'plami " Hordiq

soatlari" Nashr etildi. Bayron 1809-1811 yillarda chet el sayohatlariga chiqadi. Bu kabi sayohatlari yosh shoirning hayot voqeligini keng, atroflicha anglashiga katta yordam beradi. U sayohatlarining mevasi sifatida 1812- yilda " Chayl'd Gorol'd " Dostonini yozadi. Bu dostoni Bayronni shon- shuhratini butun Angliyaga yoyadi. Bayronning eng yaxshi asarlari bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etadi. V. Belinskiy ta'biri bilan aytganda 19 asr prometiyning ijodiyoti ozodlik va haqiqat jarchisi sifatida butun insoniyat uchun keraklidir. Bayronning bir qancha muhabbat mavzusida yozgan she'rlari ham romantizmga yaqqol misol bo'la oladi. Cho'lpon she'riyatida qahramonning ruhiy iztirobi, hayotga noroziligi, orzu va ideallarga intilishi o'zbek romantizmining markaziy tamoyillaridan biridir. Uning lirik qahramoni ko'pincha jamiyatdan ajralgan, ruhiy yolg'iz, idealga oshufta obraz sifatida namoyon bo'ladi. Fitrat asarlarida esa romantizm dramatik ko'lamda namoyon bo'ladi. U yaratgan qahramonlar ozodlik, taraqqiyot, ma'rifat yo'lida kurashayotgan idealistlar bo'lib, ular jamiyatning zulmiga, qoloqligiga qarshi ichki va tashqi kurash olib boradi. Fitratning "Abulfayzxon", "Hind ixtilochilari" kabi dramalarida qahramonning ma'naviy ulug'ligi, his-tuyg'ularining keskinligi romantik xarakterni belgilaydi. Elbek she'riyatida lirik romantizm yetakchi o'rin tutadi. Uning kechinmalar, muhabbat, iztirob, ma'yuslikni musiqiy ritmlar bilan tasvirlashi o'zbek romantik lirikasining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, botiniy kechinmalar, ruhiyatning sezgirligi, poetik obrazlarning nafisligi Elbek romantizmining o'ziga xos jihatlaridir[5]. O'zbek romantizmi G'arb romantizmiga o'xshash jihatlariga ega bo'lsa-da, ularning orasida muhim farqlar mavjud. G'arb romantizmida shaxsiy erkinlik, tabiatning cheksizligi, individualizm asosiy o'rin tutgan bo'lsa, o'zbek romantizmida milliy uyg'onish, ma'naviy tiklanish, jamiyatning ozod bo'lishi bosh tamoyil bo'lib qolgan. Shu bois, o'zbek romantizmi ko'proq ijtimoiy-ma'rifiy mazmun bilan boyigan. Maqolada keltirilgan tahlillar romantizm o'zbek adabiyotida shunchaki badiiy oqim emas, balki milliy tafakkurning yangilanish bosqichi sifatida namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Bu oqim realizmning shakllanishi uchun estetik zamin yaratdi, badiiy tasvir vositalarini boyitdi, shaxs va jamiyat munosabatini yoritishda yangi poetik imkoniyatlar berdi. Eng muhimi, romantizm milliy adabiyotda uyg'onish, ozodlik, adolat, ma'rifat kabi yuqori g'oyalarni badiiy-estetik obrazlar orqali ifodalashning samarali usuliga aylandi.

O'zbek adabiyotshunosligida romantizm oqimi XX asr boshlarida adabiy tafakkur yangilanishi jarayonida shakllangan va milliy uyg'onishning badiiy-estetik ifodasiga aylangan ijodiy yo'nalishdir. Romantizm o'zbek adabiyotiga orzu va ideal, ruhiy ziddiyat, noziktuyg'u, insonning ichki kechinmalarini yoritishning yangi usullarini olib kirdi. Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Botu kabi ijodkorlarning badiiy faoliyati romantik tafakkurning shakllanishi va rivojiga asos bo'ldi. Bu oqim milliy adabiyotni ma'naviy yuksaltirish, shaxs erkinligi va ozodlik g'oyalarini ilgari surish, jamiyatning

ruhiy uygʻonishiga xizmat qilgan. Bugungi adabiyotshunoslik uchun romantizmni oʻrganish muhimdir, chunki u nafaqat tarixiy adabiy oqim sifatida, balki milliy tafakkur taraqqiyotining estetik bosqichi sifatida ham qadrlanadi. Romantizmning milliy mazmuni, estetik imkoniyatlari va badiiy oʻziga xosligi oʻzbek adabiyotining keyingi bosqichlariga, xususan, realizmga oʻtish jarayoniga kuchli taʼsir koʻrsatgan. Shu sababli, romantik-estetik tafakkurni tahlil qilish oʻzbek adabiy jarayonini toʻliq anglash, milliy adabiyotning oʻziga xos yoʻnalishlarini aniqlash va adabiy taraqqiyotning ichki qonuniyatlarini ochib berishda muhim ilmiy yoʻnalish boʻlib qoladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, romantizm turli xil mamlakatlarda turli adiblar asarlarida sherlarida oʻz ifodasini topgan. Shunday qilib romantizm oqimining asosiy mohiyati borliqning qoniqarsiz va murakkab tomonlaridan ruhiy koʻtarilish, Buyuk orzular borasida maʼnaviy mukammallikka intilishdir. Romantizm qahramoni ijtimoiy muhitga mos kelmaydigan oʻz yoʻlini oʻzi topadigan ichki olami juda boy, idealist mukammal shaxs sifatida gavdalanadi. Romantizm doim ikki olam oʻrtasidagi keskin ziddiyatni namoyon qiladi. Avvalo, real hayotning nohaqligi, adolatsizligi va unga qarama-qarshi mukammal orzu qilingan goʻzal jamiyat, yuksak insoniylik, yetuk muhabbat yoki erkinlik. Bu kabi ziddiyat romantik asarlarga kuchli drammatizm va koʻp hollarda fojiaiy yakun olib keladi. Chunki romantik qahramonning ichki orzulari jamiyat yoki taqdir tomonlama toʻliq amalga oshmaydi. Xuddi mana shu qarama-qarshilik romantizmning eng muhim badiiy tamoyilidir. Umuman olganda romantizm badiiyatda insonni yetuk fazilatlari bilan koʻrsatishga uning ichki dunyosini ochib berishga, borliqdan yuqori turuvchi, namunaviy ulugʻlashga xizmat qiluvchi eng kerakli muhim oqim hisoblanadi. U har qanday davrda insonlarning izlanish, maʼnaviy oʻsishga boʻlgan ehtiyojini badiiy shakllantiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Erkin Xudoyberdiev. Adabiyotshunoslikka kirish.-“Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya Toshkent-2008.
2. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti-2004.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent . Oʻqituvchi, - 1980. – 356-bet.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. 2-qism -Almata: 2021 183-bet.
5. Ulugʻov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018.